

**“O’ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI DOIRASIDA ATROF-MUHITNI
ASRASH VA “YASHIL IQTISODIYOT”**

*Toshkent gumanitar fanlar universiteti
 1-bosqich Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili)
 yo‘nalishi 06-24 guruhi talabasi
 Sultonova Ozoda Xolmurod qizi
 Ilmiy rahbar: Fayzullayeva Maftuna Odil qizi
 Toshkent gumanitar fanlar universiteti
 “Pedagogika va tillar” kafedrasи
 ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola “O’zbekiston – 2030” strategiyasining atrof-muhitni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan jihatlariga bag‘ishlangan. Unda strategiyaning asosiy vazifalari va “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonida talabalarning muhim roli ko’rsatib o’tilgan. Talabalarning ongini oshirish, ekologik madaniyatni targ’ib qilish, shuningdek, amaliy harakatlarda faol ishtirok etishi O’zbekistonning barqaror rivojlanishi va ekologik farovonligiga qo‘shadigan hissasi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: “O’zbekiston – 2030” strategiyasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, yashil iqtisodiyot, talaba roli, barqaror rivojlanish, ekologik madaniyat, atrof-muhitni asrash, dasturlar, ekologik muammolar.

Аннотация: Данная статья посвящена аспектам охраны окружающей среды в рамках стратегии «Узбекистан – 2030». В ней освещаются основные задачи стратегии и подчеркивается важная роль студентов в процессе перехода к «зелёной экономике». Особое внимание уделено повышению экологического сознания студентов, пропаганде экологической культуры, а также их активному участию в практических действиях, что способствует устойчивому развитию и экологическому благополучию Узбекистана.

Ключевые слова: стратегия «Узбекистан – 2030», охрана окружающей среды, зелёная экономика, роль студента, устойчивое развитие, экологическая культура, защита окружающей среды, программы, экологические проблемы.

Annotation: This article focuses on the environmental protection aspects of the “Uzbekistan – 2030” strategy. It highlights the strategy’s main objectives and the important role of students in the transition to a “green economy.” It emphasizes that raising student awareness, promoting ecological culture, and active participation in practical actions contribute to Uzbekistan’s sustainable development and ecological well-being.

Keywords: “Uzbekistan – 2030” strategy, environmental protection, green economy, student role, sustainable development, ecological culture, environmental conservation, programs, environmental problems.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni, 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan referendum natijasida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida, mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichiga o‘tish uchun muhim qadamdir. Ushbu strategiya, Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida erkin va farovon jamiyatni yaratish, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, ta’lim va tibbiyot tizimlarini rivojlantirish, shuningdek, ekologik sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan.[O‘z Res PF-2023-yil 11 - sentabrdagi PF-158-son Farmon] “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida joriy yilgi bahor mavsumida 138 mln tup daraxt va buta ko‘chatlari ekilganligi, shuningdek, sanoat korxonalari hududi va atrofida 5,3 mln tup daraxt ko‘chati o‘tqazilganligi, Yashil belbog‘lar tashkil qilinganligini aytib o‘tish lozim. Orol dengizi tubida va Orolbo‘yi mintaqasida 215 ming gektar maydonda “yashil qoplamlar” tashkil etildi, shu bilan bir qatorda “Mening bog‘im” loyihasi ishga tushirildi. “Atrof-muhitni asrash” va “yashil iqtisodiyot” yilida mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari etib quyidagilar belgilandi:

- mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash;
- ko‘chalarda yashillik darajasini oshirish;
- ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish;
- aholining salomatligini yaxshilash.

Yashil iqtisodiyot - bu insonlarning farovonligi va ijtimoiy tenglikni oshirishga qaratilgan, ayni paytda ekologik xavflarni kamaytiradigan va ekologik tanqislikni bartaraf etadigan iqtisodiy tizim hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, u iqtisodiy o‘sishni atrof-muhitga zarar yetkazmasdan yoki tabiiy resurslarni tugatmasdan ta’minlashga intiladi.

Yashil iqtisodiyotning asosiy elementlari:

Resurslardan oqilona foydalanish: Tabiiy resurslardan (suv, energiya, mineral xom ashyo va boshqalar) samarali va tejamkorlik bilan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishslash.

Qayta tiklanuvchi energiya: Qazilma yoqilg‘i (ko‘mir, neft, gaz) o‘rniga quyosh, shamol, gidroenergetika va boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish.

Ekologik toza texnologiyalar: Ishlab chiqarish, transport, qurilish va boshqa sohalarda atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan yoki kamroq zarar yetkazadigan texnologiyalarni joriy etish.

Barqaror qishloq xo‘jaligi: Tuproq unumdorligini saqlash, suv resurslaridan oqilona foydalanish va kimyoviy o‘g‘itlar va pestitsidlardan foydalanishni kamaytirishga qaratilgan qishloq xo‘jaligi usullarini qo‘llash.

Ekologik transport: Jamoat transportini rivojlantirish, velosiped yo‘llarini qurish va elektr transport vositalaridan foydalanishni rag‘batlantirish. Ekologik turizm: Tabiatga zarar yetkazmaydigan va mahalliy aholining farovonligini oshiradigan turizm turlarini rivojlantirish.

“Yashil” ish o‘rinlari: Yashil iqtisodiyot sohalarida yaratiladigan yangi ish o‘rinlari (masalan, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik qurilish va boshqalar).

Yashil iqtisodiyotning afzalliklari:

Atrof-muhitning yaxshilanishi: Havo va suvning ifloslanishini kamaytirish, biologik xilma-xillikni saqlash va iqlim o‘zgarishining oqibatlarini yumshatish.

Iqtisodiy o’sish: Yangi texnologiyalar va sohalarni rivojlantirish, “yashil” ish o‘rinlarini yaratish va resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish. Ijtimoiy foya: Aholining salomatligini yaxshilash, qashshoqlikni kamaytirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘llari:

Davlat siyosati:

Ekologik soliqlar, subsidiyalar va standartlar orqali “yashil” texnologiyalar va sohalarni qo‘llab-quvvatlash. Investitsiyalar: “Yashil” infratuzilmaga, ilmiy tadqiqotlarga va ta’limga investitsiyalarni oshirish. Xalqaro hamkorlik: Iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikni saqlash va barqaror rivojlanish bo‘yicha xalqaro kelishuvlarni qo‘llab-quvvatlash [O‘z Res PF-436 2022-yil 2-dekabr].

Jamiyatning ishtiroki:

Aholining ekologik ongini oshirish va ularni “yashil” tashabbuslarda ishtirok etishga undash.¹ [O‘z Res 2023-yil 23-noyabr, PF-199-son Farmon].

Yashil iqtisodiyotga o‘tish - bu uzoq muddatli jarayon bo‘lib, davlat, xususiy sektor va jamiyatning birgalikdagi harakatlarini talab qiladi. Biroq, bu jarayon kelajak avlodlar uchun barqaror va farovon dunyonи yaratishga yordam beradi.

Amaliy ijro jarayonlarini tashkil etish usullari:

1. Aniq maqsadlar va vazifalar belgilash:

Strategiyaning har bir yo‘nalishi bo‘yicha aniq, o‘lchanadigan, erishish mumkin bo‘lgan, tegishli va vaqt bilan cheklangan (SMART) maqsadlarni belgilash.

Har bir vazirlik, idora va tashkilot uchun aniq vazifalar va javobgarlik sohalarini belgilash.

2. Moliya resurslarini ta’minlash:

1. Davlat budgetidan “yashil” loyihalarni moliyalashtirish uchun yetarli mablag‘ ajratish.

- 2.Xususiy investitsiyalarni jalg qilish uchun qulay sharoitlar yaratish (soliq imtiyozlari, subsidiyalar, kafolatlar).
- 3.Xalqaro grantlar va texnik yordamni jalg qilish.
- 4.“Yashil” obligatsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlarni chiqarish.
- 5.Davlat organlari, xususiy sektor, ilmiy muassasalar va fuqarolik jamiyati o‘rtasida samarali hamkorlikni ta’minlash.
- 6.Turli vazirlik va idoralar o‘rtasida yashil iqtisodiyot loyihamini muvofiqlashtirish.
- 7.Xalqaro tashkilotlar va donorlar bilan hamkorlikni kengaytirish.Qonunchilik bazasini takomillashtirish:
- 8.Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga to‘sinqinlik qiladigan normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish.
- 9.Yangi qonunlar va qoidalarni ishlab chiqish (masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalari, chiqindilarni boshqarish, ekologik standartlar bo‘yicha).

O‘zbekistonning ekologik muammolarini hal etish bo‘yicha takliflar:

Yashil iqtisodiyot - bu insonlarning farovonligi va ijtimoiy tenglikni oshirishga qaratilgan, ayni paytda ekologik xavflarni kamaytiradigan va ekologik tanqislikni bartaraf etadigan iqtisodiy tizim hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, u iqtisodiy o‘sishni atrof-muhitga zarar yetkazmasdan yoki tabiiy resurslarni tugatmasdan ta’minlashga intiladi. Shu ma’noda bir nechta ekologik muammolarini hal etish bo‘yicha takliflarni berishni o‘rinli deb bildik. Ular quyidagilar:

Suv resurslaridan oqilona foydalanish:

1. Sug‘orishda suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish (tomchilatib sug‘orish, yomg‘irlatib sug‘orish).
2. Suv hisobini yaxshilash va suv resurslarining monitoringini kuchaytirish.
3. Suvni qayta ishlash va qayta foydalanish texnologiyalarini joriy etish.
4. Aholining suvdan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish.

Havoning ifloslanishini kamaytirish:

1. Transportda ekologik toza yoqilg‘iga o‘tishni rag‘batlantirish (elektromobil, gaz).
2. Sanoat korxonalarida tozalash inshootlarini modernizatsiya qilish.
3. Yashil hududlarni kengaytirish va daraxt ekish.
4. Qattiq yoqilg‘i (ko‘mir, o‘tin)dan foydalanishni kamaytirish.

Chiqindilarni boshqarish:

1. Chiqindilarni saralash va qayta ishlash tizimini yaratish.
2. Poligonlarni modernizatsiya qilish va yangilarini qurish.
3. Plastikadan foydalanishni kamaytirish va qayta ishlanadigan materiallardan foydalanishni rag‘batlantirish.
4. Kompstplash va biogaz ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish.

Tuproq degradatsiyasiga qarshi kurashish:

- 1.Tuproq unumdorligini oshirish uchun organik o‘g‘itlardan foydalanishni kengaytirish.
- 2.Orol dengizi muammosini hal etish.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va yashil iqtisodiyotga o‘tishda talabalarining roli

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi atrof-muhitni muhofaza qilishga katta e’tibor qaratadi. U barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni hal etish va “yashil” texnologiyalarni joriy qilish kabi yo‘nalishlarda muhim qadamlar qo‘yishni nazarda tutadi. Bu strategiya doirasida amalga oshiriladigan loyihalar O‘zbekistonning ekologik holatini yaxshilashga, aholi salomatligini mustahkamlashga va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan. Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida talabalarining roli beqiyos. Ular nafaqat kelajak avlod vakillari sifatida atrof-muhitga mas’uliyatni his qilishlari, balki o‘z bilim va g‘oyalari bilan bu jarayonga faol hissa qo‘shishlari mumkin. Talabalar bunga quyidagicha yondashishlari mumkin:

Ta’lim va trening dasturlari: Fermerlar, dehqonlar va mahalliy aholi uchun iqlim o‘zgarishi, barqaror resurslarni boshqarish va agroekologiya bo‘yicha ta’lim dasturlari ishlab chiqildi va tashkil etildi.² [O‘z Res 2023-yil 23-noyabr, PF-199-son Farmon]

Ma’lumot bazasini yaratish: Tabiiy resurslarning holatini kuzatish uchun ma’lumot basasi yaratildi, bu esa resurslar bo‘yicha aniq va dolzarb ma’lumotlarni taqdim etadi. ³ [O‘z Res 2023-yil 23-noyabr, PF-199-son]

- **Ta’lim va tadqiqot orqali:** Yashil texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ekologik toza ishlab chiqarish usullari bo‘yicha tadqiqotlar olib borish, innovatsion loyihalar yaratish.
- **Ongni oshirish orqali:** Atrof-muhit muhofazasi, ekologik madaniyatni targ‘ib qilish, aholi o‘rtasida ekologik bilim va tushunchalarni kengaytirish.
- **Amaliy harakatlar orqali:** Ekologik aksiyalarda (hasharlar, daraxt ekish, chiqindilarni saralash) ishtirok etish, ekologik tashkilotlarga ko‘ngilli sifatida yordam berish, “yashil” turmush tarzini targ‘ib qilish.

Bu jarayon, ularning mantiqiy fikrlashini va analitik ko‘nikmalarini oshiradi. Talabalar ilmiy tadqiqotlar orqali yangi g‘oyalar va innovatsiyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu ularning ijodkorlik qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, talabalar ilmiy tadqiqotlar orqali yashil iqtisodiyotning muhim jihatlarini o‘rganishlari mumkin. Bu ularga nafaqat o‘z bilimlarini kengaytirish, balki atrof-muhit muammolariga yechim topishda faol ishtirok etishga yordam beradi

Xulosa qilib aytganda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida keng qamrovli vazifalarni o‘z ichiga oladi va yashil iqtisodiyotga o‘tish talabalarining faol ishtirokini talab etadi. Talabalar o‘z bilim, g‘oya

va amaliy harakatlari bilan O‘zbekistonning barqaror rivojlanishiga va ekologik farovonligiga hissa qo‘sishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qonunchilik Ma’lumotlari Milliy Bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son; 21.03.2025-y., 06/25/51/0261-son; 26.03.2025-y., 06/25/56/0274-son)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11 - sentabrdagi PF-158-son Farmon
3. “Yashil makon” Umummilliy Loyihasi (2023-yil 23-noyabr, PF-199-son Farmon)
4. Prezident Farmoni PF-436 (2022-yil 2-dekabr)